

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY TAHLILI

Xushvaqov Anvar Boqiyevich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrasи dotsenti

Annotatsiya: Kambag‘allikni qisqartirish, davlatning ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Maqolada kambag‘allik tushunchasiga ta’rif berilgan, mintaqada kambag‘allikni qisqartirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ahamiyatining shart-sharoitlari, tamoyillari, xorij tajribasi va undan samarali foydalanish yo‘llari bayon etilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega. Xususiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Xusan, kambag‘allikni qisqartirishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bir qator shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, ularning har biri iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Kambag‘allik, kambag‘allik qisqartirish, kambag‘allik darajasi, ishsizlik, qashshoqlik.

KIRISH

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish, ish haqi va boshqa pul daromadlarining bosqichma-bosqich oshib borishini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. O‘z navbatida, aholi pul daromadlarining o‘sishi, uning xarid qobiliyatini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va mamlakatdagi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir sohada ishlab chiqarish jarayonining texnik va texnologik jihatdan yangilanishi u tomonidan yaratiladigan moddiy boyliklarning inson haqiqatan yashaydigan predmet dunyosining keskin sifat o‘zgarishiga va yangilanishiga, bu bilan esa uning butun hayot tarzining

o‘zgarishi va yangilanishiga olib keladiki, bu unda yangi ehtiyojlar yuzaga kelishi kuzatiladi. Ana shu ehtiyojlarni to‘liq qondirolmashlik, ayniqsa asosiy moddiy ehtiyojlargagina topganining 50 foizdan yuqorisini sarflash, jamg‘arma bo‘lmasligi kambag‘allik, qashshoqlik tushunchalarini ko‘rsatadi.

Muammoni qo‘yilishi

Mamlakatimizda kambag‘allik darajasi mezonlarini aniqlash va oldini olish bo‘yicha takomillashgan tizimning, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tendensiyasini, amalga oshirish mexanizmlarining xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashilgan keng ko‘lamli jarayonlarini bajarishga erishish.

Adabiyotlar sharhi.

Aholi daromadi tengsizligi va kambag‘allik bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha D.Rikardo, R.Solou, A.Sen, A.Ditont kabi ko‘plab mumtoz neoklassik iqtisodchilar va Nobel mukofoti Lauretlari nazariy va empirik tadqiqotlar o‘tkazgan bo‘lib, ularda yalpi ichki iste’mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumдорligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa shu kabi omillar tahlili asosida, kambag‘allik kam bo‘lgan jamiyatlarda, iqtisodiy o‘sish sur’atlari yuqoriroq bo‘lishini nazariy isbotlashgan[2].

MDH mamlakatlaridan N.I.Baranets, I.V.Barbashin, O.I.Vitkovskaya, D.A.Volkov, T.A.Gurko, S.O.Kalendjyanlarning hamda o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar qatorida Q.X.Abdurahmonov, Sh.R.Xolmo‘minov, R.F.Djumanova, N.M.Ibragimova, M.Z.Muxitdinova, B.Pardayeva, K.S.Saidov, P.Z.Xashimov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kambag‘allikka oid masalalar alohida muammo sifatida chuqr o‘rganishga harakat qilingan[3, 6, 7].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida monografik kuzatuv, tizimli yondashuv, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

Masalani yechishning nazariy qismi

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarda oilaviy firmalar jamiyat farovonligi va rivojlanishining assosini tashkil kiladi, ishlab chiqariladigan tovarlar va ko‘rsatiladigan xizmatlarning kattagina qismi ularning zimmasiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan

birga kichik oilaviy biznesni rivojlantirish mamlakat uchun nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Xattoki eng kichik bo‘lsada, o‘z biznesiga ega bo‘lgan oilada intilgani maqsad, farzandlarini o‘stirgani sabab, meros qilib qoldirgani narsa mavjud bo‘ladi. Shunday kilib mamlakatda asta-sekinlik bilan o‘zi uchun ishlay oluvchi va shu bilan bir vaqtda davlatga ham salmoqli daromad keltiruvchi mulkdorlarning o‘rta sinfi shakllanadi.

Xususan, kambag‘allikni qisqartirishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bir qator shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi, ularning har biri iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Biznes muhiti va davlat siyosati-xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda eng muhim omillardan biri bu davlatning biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan siyosati hisoblanadi. Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan soliq va iqtisodiy islohotlar, qonunlarning soddalashtirilishi, byurokratik to‘siqlarning kamaytirilishi tadbirkorlarning faoliyatini yanada samarali qilishga yordam beradi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznesga soliq imtiyozlarini taqdim etish, ularning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash-xususiy tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash muhim shart-sharoitdir. Banklar va moliyaviy institutlar tomonidan kichik va o‘rta biznes uchun arzon foizli kreditlar, biznesni boshlash uchun grantlar va investitsiya dasturlari xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali tadbirkorlar o‘z biznesini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ta’lim va malaka oshirish-tadbirkorlikni rivojlantirishda ta’lim va malaka oshirishning o‘rni katta. Tadbirkorlar va ularning xodimlarini biznes boshqaruvi, moliya, marketing va boshqa sohalarda malakasini oshirish uchun ta’lim tizimini takomillashtirish zarur. Bu, o‘z navbatida, tadbirkorlarning yanada samarali ishlashiga, raqobatbardoshligini oshirishga, kambag‘allikni kamaytirishga yordam beradi.

Innovatsiyalarni joriy etish-innovatsion texnologiyalarni tadbirkorlik jarayonlariga kiritish orqali biznesni samarali boshqarish mumkin. Raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, elektron tijorat tadbirkorlikning rivojlanishiga yordam beradi. Yangi texnologiyalarni qo'llash nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki yangi bozorlar yaratadi, shu bilan birga, iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Huquqiy himoya va xavfsizlik-xususiy tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish va ularga xavfsiz muhit yaratish ham xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Hukumatning biznesni qo'llab-quvvatlash uchun mustahkam huquqiy bazaga ega bo'lishi, shuningdek, biznesni himoya qiluvchi qonunlarni ishlab chiqishi talab etiladi. Xususiy tadbirkorlar uchun huquqiy himoya muhim, chunki bu ularga o'z biznesini xavfsiz va barqaror muhitda rivojlantirish imkonini beradi.

Yangi ish o'rinalarini yaratish-xususiy tadbirkorlik yangi ish o'rinalarini yaratish orqali kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega. Xususiy sektor o'zining faoliyatini kengaytigan sari, yangi ish o'rinalari yaratadi va shu orqali ishsizlikni kamaytiradi. Ayniqsa, qishloq joylari va kambag'al hududlarda ish o'rinalari yaratish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kambag'allikni qisqartirishda xususiy tadbirkorlik sohasida band tadbirkorlik subyektlari ko'pincha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etishga urinishlari bilan tavsiflanadi. Ular faoliyatining strategiyasi asosan quyidagilardan tashkil topadi:

Aholi real daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, buning uchun ijtimoiy mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali jon boshiga to'g'ri keladigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini, ya'ni mehnat unumdarligini keskin oshirish lozim.

Kambag'allik holatida yoki chegarasida yashayotgan aholi qatlamin qashshoqlikdan chiqarish uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar va aholi tomorqalaridan maqsadli foydalanishda mikroklaster tuzilmalarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Yuqorida ko‘rsatilgan shart-sharoitlar xususiy tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Davlatning ijtimoiy siyosati, biznes muhitining yaxshilanishi, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, innovatsiyalarni joriy etish va boshqa shart-sharoitlar orqali xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish kambag‘allikni qisqartirishda muhim omil bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // 30.12.2020 10:00.10.3K. <https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistanashavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

2. Deaton A. (2013) The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality, Princeton, N.J.: Princeton University Press 27

3. Q.X.Abdurahmonov, SH.R.Xolmo‘minov “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”. - O‘quv qo‘llanma -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004 y.

4. Ўзбекистон Республикаси Статистика Қўмитаси маълумотномаси

5. Ўзбекистон Республикасининг "Оилавий тадбиркорлик тўғрисида"ти Қонун 2012 йил 26 апрел. //Халқ сўзи, 2012 йил 27 апрел.

6. Ибрагимова Н.М. “Аҳоли истеъмолини макроиктисодий таомиллаштириш” иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент –2019 й.

7. Raximov, A. N. (2023). Dehqon xo ‘jaliklari faoliyatining istiqbolli rivojlantirishga tasir etuvchi omillar. Экономика и социум, (3-2 (106)), 255-262.

8. Jo‘rayev, F. (2021). Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqboldagi muammolari va ularni ekonometrik modellashtirish. Iqtisodiyot va ta’lim, (4), 377-385.
9. Maxmatqulov, G. O. X. (2023). “Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” fanidan amaliy va laboratoriya mashg ‘ulotlarini o ‘qitishda virtual cisco packet tracer dasturidan foydalanish. Educational research in universal sciences, 2(15), 483-486.
10. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. Iqtisodiyot va ta’lim, 24(6), 245-250.